

AKADEMIK LITSEYLARDA TURKISTON MUXTORIYATI MAVZUSINING O'RGANILISHI

Mamatxolov Aziz Baxtiyorovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akaddemik litseyi tarix fani yetakchi o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14170533>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari davlatchiligi tarixida Turkiston Muxtoriyatini tashkil etilishi yoritilgan. Shuningdek uning davlat tuzilishi haqidagi turli fikrlar bayon etilgan va tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, Muxtoriyat, Qurultoy, kengash, sho'ro, syezd, davlat tuzilishi, tarix.

STUDY OF TURKISH AUTONOMY IN ACADEMIC LYCEUMS

Abstract. This article describes the establishment of the Turkestan Autonomy in the history of the statehood of the peoples of the Central Asian region. Also, various opinions about his state structure are stated and analyzed.

Satler College: Turkestan, Autonomy, Congress, council, council, congress, state formation, history.

ИЗУЧЕНИЕ ТУРЕЦКОЙ АВТОНОМИИ В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

Аннотация. В данной статье описывается становление Туркестанской автономии в истории государственности народов Среднеазиатского региона. Также излагаются и анализируются различные мнения о его государственном устройстве.

Ключевые слова: Туркестан, автономия, Курултай, совет, совет, собрание, государственное устройство, история.

O'zbek xalqi milliy davlatchiligi tarixida Turkiston Muxtoriyati alohida ajralib turadi.

Turkiston Muxtoriyati qisqa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa ham, u tarihimizga chuqur iz qoldirdi. Tarixdan ma'lumki, Qo'qon shaxrida 1917-yil 26-28 noyabrda bo'lib o'tgan Butunturkiston musulmonlarining favqulodda to'rtinchi qurultoyida Turkiston Muxtoriyati tashkil qilindi. Qurultoy Turkiston o'lkasini Rossiya Federativ Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qildi. Shuningdek, qurultoyda Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimyatni Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Milliy Majlisi qo'lida bo'lishi kerak deb hisoblandi. [1.] 28-noyabrda tashkil topayotgan mazkur davlatning nomi "Turkiston Muxtoriyati" deb ataladigan bo'ldi. [2.]

Hokimyatni esa Ta'sis syezdi chaqirilganga qadar Turkiston muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo'lida bo'lishi ta'kidlandi.

Shuningdek syezdda muvaqqat kengash tarkibida 12 kishidan iborat a'zolar saylash taklif etildi. Xalq majlisi tarkibida saylanadigan 54 o'rindan 18 o'rin o'lkadagi turli yevropalik ahli tashkilotlarining vakillari uchun axjratildi. Bu esa uchdan bir o'rin yevropalik aholi vakillariga tegishini bildirar edi. Natijada syezdda Muvaqqat hukumat tashkil qilinib uning a'zolarini saylashga muvaffaq bo'linadi. Muvaqqat hukumat tarkibiga quyidagi a'zolar saylanadi.

1.M.Tinishpayev-bosh vazir, ichki ishlar vaziri, 2-chaqiriq Davlat Dumasining a'zosi, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a'zosi, muhandis. 2.Islom Sulton Shoahhmedov (Shagiahmedov)- bosh vazir o'rinbosari, Butunrossiya musulmonlari kengashi Markvziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos. 3.Mustafo Cho'qayev- tashqi ishlar vaziri, Turkiston Musulmonlar Sho'rosi Markaziy qo'mitasining raisi, huquqshunos. 4.Ubaydulla Xo'jayev- harbiy vazir, Butunrossiya musulmonlar kengashi MQ a'zosi 5.Yurali Agayev- yer va suv boyliklari vaziri, agronom. 6.Obidjon Mahmudov- oziq ovqat vaziri, Qo'qon shahar dumasining rais o'rinbosari, tog'-kon sanoati muhandisi. 7.Abdurahmon O'razayev – chki ishlar vazirining o'rinbosari, huquqshunos. 8.Salomon Abramovich Gersfel'd- moliya vaziri, huquqshunos. [3.]

Umummusulmon syezdining 27-noyabrida Turkiston Muxtoriyati tashkil qilinganligi haqidagi qarori o'lka xaqqlarini ruhlantirib yubordi. Turkiston halqlari muxtoriyatni qo'llab-quvvatlab mitinglar, yig'inlar uyushtirdilar. 1917-yilning 6-dekabrida Toshkentdagi Jome' masjidida o'tkazilgan mitingda jami 60 ming kishi qatnashgan edi. Mitngda so'zga chiqqanlar sovet hokimyatiga munosabatlarini ham bildirishdi. Miting yakunida bir ovozdan ushbu qaror qabul qilindi: "Biz musulmonlar sinf va daraja ayirmalariga qaramasdan, Turkiston Muxtoriyatini olqishlagan holda, Qo'qondagi favqulodda syezd tarafidan e'lon etilgan Turkistonda xalq hukumatini vujudga keltiruv haqidagi qarorga butun vujudimiz birla qo'shilib, ishonamizki, buyuk Rusiya revalutsiyasini tarafidan e'lon etilgan hokimiyati...Turkiston xalqining tarafidan bir og'izdan bayon etilgan tilagiga qo'shilur, ham birga istiqlol yo'lida qadam bosishda va o'z kunimizni o'zimiz ko'ra boshlashda yordam etar. Shunga iymon etgan holda biz o'lkadagi hamma musulmonlarni muxtoriyatli Turkiston hukumati atrofida jiplashib, hozirgi o'lka idorasi boshida bo'lib turgan muvaqqat tashkilotlar bilan qanday bo'lmasin dushmanlarcha muomala qiluvidan saqlanishga da'vat qilamiz. Turkiston Muxtoriyati amaliy suratda tezroq vujudga kelishi uchun tinch va totuvlikni saqlashimiz kerak. Toinki, shuning orqasinda o'zaro urush va bugundan e'tiboran hur bo'lgan Turkistonning bir to'g'on kabi halqlarimiz orasida gunohsiz qon to'kilmasin.

Yashasun muxtoriyatli Turkiston!"[4.].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, siyosiy guruhlar, partiyalarning muxtoriyatga bo'lgan munosabati bir xil emas edi. Agar Turkiston eserlari 1918-yil 8-10 yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi syezdda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumatini qo'llab quvatlab, Xalq majlisiga o'z vakili Skomoroxovni yuborishga qaror qilgan bo'lsalar, Toshkentdagi Jome' masjidida bo'lib o'tgan mitingda esa Toshkentlik ulamochilar Muvaqqat Muxtor hukumatni tanqid qilib, "ular shu vaqtgacha bizning mafaatimiz uchun hech narsa qilolgani yo'q", deya uni qo'llashdan bosh tortdilar. Oxir-oqibat ko'pchilik vakillar Turkiston o'lkasini Rossiya tarkibida muxtor respublika deb e'lon qilish kerak deb ovoz berishadi. 1917 yil 27 noyabr kuni bu haqda qaror qabul qilinadi.

Qarorda shunday deyilgandi: «Turkistonda yashab kelayotgan turli millatga mansub aholi Rossiyada inqilob sodir etgan bolsheviklar tomonidan xalqlarning o'z haq-huquqlarini o'zlari belgilash haqidagi gaplaridan kelib chiqib, Turkistonni Rossiya sovet federativ sotsialistik respublikasi tarkibida muxtor hudud deb e'lon qiladi».[5.] 28 noyabr kuni davom etgan yig'ilishda qurultoyga kelgan vakillar Turkistonda tashkil topayotgan yangi muxtor davlatning nomi «Turkiston Muxtoriyati» deb atalishi uchun ovoz beradi. Shuningdek, Turkiston o'lkasida hokimiyat Turkiston Muxtoriyati muvaqqat kengashi va Turkiston Muxtoriyati xalq majlisiga o'tishi haqida qaror qabul qilinadi. Turkiston muxtoriyati tuzilgach, hukumat vakillari hududlarda muxtoriyat tuzilmalarini tashkil eta boshlashadi. Taniqli va tajribali huquqshunolar jalb etilib, Muxtoriyat konstitutsiyasini tayyorlash ishlariga kirishiladi. Muxtoriyat hukumati tomonidan o'zbek, qozoq va rus tillarida hukumat gazetalari nashr etila boshlanadi. Yangi tashkil etilgan davlat uchun mudofaa ishlari ham juda dolzarb edi. Shu sababli hukumat armiya tashkil etishga kirishadi. Muxtoriyat mudofaa vaziri Ubaydulla Xo'jayev qisqa muddatda 2 mingdan oshiq askarga ega armiya tuzadi.

Shuningdek, o'sha paytda Qo'qon uyezdi militsiya otryadlari boshlig'i Ergash qo'l ostida ham muxtoriyat armiyasiga yordamga shay bo'lgan minglab mirshab bor edi. Turkiston muxtoriyati hukumati o'z tuzilmalarini tashkil etar ekan, bolsheviklar tomonidan Toshkentda ham alohida avtonom respublika tuzish harakatlari boshlanadi. 1918 yil yanvar oyida Toshkentda Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulodda IV syezdi bo'lib o'tadi.

Unda o'lkasidagi bolsheviklarning Turkistonda RSFSR tarkibiga kiradigan avtonom respublika tuzish taklifi qabul qilinadi. Ular bu davlatga Turkiston sovet sotsialistik avtonom respublikasi (TASSR) deb nom berishadi. Bundan tashqari, syezdda Turkiston muxtoriyati noqonuniy tuzilma deb e'lon qilinadi. Qo'qonga harbiy yurish qilib, muxtoriyatni ag'darib tashlash masalasida bir qarorga kelinadi. Toshkentda bolsheviklar tomonidan tuzilgan muxtoriyat aslida nomiga tuzilgan bo'lib, maqsad Turkistonni bolsheviklarga mutlaq bo'ysundirish edi. Qo'qonda tuzilgan muxtoriyat kuchayib ketsa keyin ularni yengish qiyin bo'lardi.

Buni yaxshi anglagan Toshkent bolsheviklari rahbari Kolesov Moskvadan yordam kuchlari yuborishni so'raydi. 1918 yil 30 yanvar kuni Turkiston xalq komissarlari soveti boshchiligidagi armiya Turkiston muxtoriyati hukumatini tugatish uchun Farg'ona vodiysida harbiy harakatlarni boshlaydi.

Bolsheviklar muxtoriyat hukumatiga taslim bo'lish va ixtiyoridagi armiyani tarqatib yuborish talabini qo'yadi. Muxtoriyat hukumati bu talabga rozi bo'lmaydi. Shundan so'ng 1918 yil 31 yanvar kuni bolsheviklar armiyasi hujum boshlaydi. O'sha paytda Turkiston muxtoriyati armiyasida qurol-yarog', o'q-dori yetishmas, askarlar mahorati ham haminqadar bo'lgan.

Aksincha, bolsheviklarga to'xtovsiz yordam kelib turadi. Shu sababli muxtoriyat armiyasi birin-ketin mag'lubiyatga uchray boshlaydi. Qariyb uch hafta davom etgan qaqshatqich janglardan so'ng 1918 yil 19 fevral kuni Turkiston muxtoriyati armiyasi tamomila mag'lubiyatga uchraydi.

Oqibatda muxtoriyat hukumati bolsheviklar tomonidan ag'darib tashlanadi. Shturm chog'ida Qo'qon vayron qilinadi.

REFERENCES

1. Rajabov Q. Turkiston muxtoriyati vazirlari hamda milliy majlis a'zolari hayoti va taqdiri. -T.: "Bodomzor invest" 2021.-92 b
2. "Ulug' Turkiston". 1917, 8-dekabr; "Turkestanskiy vestnik". 1917, 1-dekabrya
3. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -T.: "Sharq", 2000.-688 b
4. "Ulug' Turkiston". 1917, 8-dekabr.
5. muxtoriyat.uz